



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
____-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

_____ning
2025-2026-o'quv yili 3-sinf
o'qish savodxonligi fanidan
I chorak uchun

DARS
ISHLANMALARI



DIQQAT



Unutmang!!! Ushbu hujjat sizga hech kimga tarqatmaslik sharti bilan **OMONAT** qilib berildi. Agar ushbu hujjat sizga boshqalar orqali kelib qolgan bo'lsa ham **OMONAT** hisoblanadi.

Ushbu **OMONAT**ni faqat o'zingiz uchun foydalaning. Hech kimga bermang, hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Tijoriy maqsadda foydalanmang.
Internet va Veb-sayitlarga joylamang.
Telegram orqali kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA HIYONAT QILMANG.

Telegram orqali admin **Nabiyev Zokirjon**
bilan bog'lanish **90-530-68-66** yoki **Nza456**

2025-2026-o‘quv yili 3-sinf o‘qish savodxonligi fanidan I chorak uchun
taqvim mavzu rejasi

№	O‘tiladigan mavzular rejasi	Nazariy soat	Dars o‘tkazish muddati	Dars o‘tkazilgan sana
1.	Vatan madhi dillarda	1		
2.	Salom, Maktab! Arofatbonu Mullajonova	1		
3.	Opa-singillar.	1		
4.	Oyog‘i osmonda bo‘lgan sichqonlar. Roald Dal	1		
5.	Chin va Yolg‘on. Po‘lat Mo‘min	1		
6.	Bo‘lim yuzasidan takrorlash.	1		
7.	STO`	1		
8.	Nazorat ishi 1.	1		
9.	Kuz.	1		
10.	Bir-birin kuzatar fasllar. Po‘lat Mo‘min	1		
11.	Tog‘lar. Azim Suyun	1		
12.	Karim Polvon, Abdulla Saidov	1		
13.	Chorining qobiliyati.(PIRLS)	1		
14.	Hunarning hidi qanaqa? Janni Rodari	1		
15.	STO`	1		
16.	Nazorat ishi 2.	1		
17.	Baliq ovida.Mahmud To‘ychiyev	1		
18.	Odob. Muhabbat Hamidova	1		
19.	Insoniy fazilatlar to‘g‘risida maqollar	1		
20.	Yaxshilik. Farhod Musajonov	1		
21.	Filipok. Lev Tolstoy	1		
22.	Dum-dumaloq qo‘ng‘iz. Aziz Abdurazzoq	1		
23.	STO`	1		
24.	Uch ko‘zli narsa to‘g‘risida. Jon Chiardi	1		
25.	Bo‘lim yuzasidan takrorlash	1		
26.	Nazorat ishi 3.	1		
27.	Mustahkamlash	1		

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Vatan madhi dillarda

Maqsadlar:

a) ta'limiy maqsad-o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.

b) tarbiyaviy maqsad- badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug'larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o'rgatish.

d) rivojlantiruvchi maqsad-o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

FK - fanga oid kompetensiyalar

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars usuli: suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

III. Yangi mavzu bayoni:

Ushbu so'zlarning ma'nosini izohlang.



Vatan madhi dillarda

Vatan! Bu soʻz bizning qalbimizga ona allasidan, uning qaynoq muhabbatidan singadi. Agar maʼlum bir muddat oʻz uyimizdan sal olisroqda yashab qolsak, koʻnglimiz gʻash boʻlaveradi. Har qanday koʻngilochar narsalar ham bizni quvontira olmaydi. Negaki, biz oʻz goʻshamizni qoʻmsay boshlaymiz. Bu Vatanni sevishning bir koʻrinishi emasmi?! Vatanga muhabbat, uni ardoqlash, ona Vatanga tegishli boʻlgan har bir narsani muqaddas bilish, oʻzini shu Vatan kengliklariga daxldor deb his qilish haqiqiy insonlarga xos fazilatdir. Aziz bolajonlar, mana, yana bir yoshga ulgʻaydik. Orzu-oʻylarimiz, niyatlarimiz ham biz bilan qoʻl ushlab boʻy choʻzmoqda. Ulgʻayganimiz sari qalbimizda, ongimizda yangi-yangi tuygʻular uygʻona boshlaydi. Vatanga muhabbat, ota-onaga hurmat, ajdodlarga nisbatan iftixor, masʼuliyat, ishonch kabi tuygʻular qatoriga oʻnlab, yuzlab tuygʻularni kiritish mumkin. Bu tuygʻularning asosi muhabbatdir. Bizni oʻz quchogʻiga olgan, tinch va osoyishta yashayotgan, ilm olayotgan Vatanimizni sevmay boʻladimi?! Oʻzbekiston deya atalmish, bogʻlarida jannat shivirleydigan serquyosh oʻlkamizda dunyoni qalam bilan tebratgan ne-ne shoirlar, oʻz aqli bilan hozirgi kunda ham olam ahlini lol qoldirib kelayotgan olim-u fuzalolar yetishib chiqqan. Biz buyuk bobolarimiz bilan faxrlanamiz va ularga munosib avlod boʻlishga intilamiz.

Quyidagi rasmlardan matnga mos boʻlmaganini toping va javobingizni izohlang.



Vatan haqidagi maqollar qatorini davom ettiring.



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: oʻtilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob oʻtkaziladi. Oʻtilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Oʻquvchilar topshiriqlarni bajarib, oʻtilgan mavzuni qismlarga boʻlib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, oʻqituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

V. Oʻquvchilarni ragʻbatlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan oʻquvchilar ragʻbat kartochkalari bilan ragʻbatlantiriladi.

VI. Uyga vazifani eʼlon qilish: “Vatan - mening tasavvurimda” mavzusida hikoya yozing.

OʻIBDOʻ: _____
(imzo) (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Salom, maktab! Arofat Mullajonova

Maqsadlar:

a) ta'limiy maqsad-o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.

b) tarbiyaviy maqsad- badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug'larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o'rgatish.

d) rivojlantiruvchi maqsad-o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

FK - fanga oid kompetensiyalar

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars usuli: suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

III. Yangi mavzu bayoni:

Topishmoqning javobini toping.

Topishmoqni top, o'rtoq!

Joylagin qalam, chizg'ich,

Kitob, daftar, o'chirg'ich.

Bag'rimga sig'ar bari,

Ketamiz maktab sari.

Lek ko'tarib olasan,

Yo'qsa, mensiz qolasan.

Men senga yaxshi hamroh,

Nomimni top-chi, o'rtoq.



Rebusni yeching.



Salom, maktab!

Arofatbonu Mullajonova

Bugun bilimlar kuni,
Turibman quchog'ingda.
Juda sog'indim seni,
Sendan ayro chog'imda.
Yangi orzu, yangi kuch,
Yangicha har bir qadam.
Bilim "qushi", qani, uch,
Seniki butun olam.
Hamma o'quvchilar jam,
Do'stlar diydori shirin.
Yechgaymiz bo'lsak birdam
Barcha tilsimlar sirin.



Salom, maktab, oltin kuz,
Tillarang daraxt bargi.
Senga talpinar hanuz,
Minglab o'quvchi qalbi.
Oldinda yangi marra,
Yo'qdir hech qanday kam-ko'st.
Yana men ikki karra
Kitob bilan bo'ldim do'st.
Salom, maktab, sen uchqun,
Zulmat ichra ziyosan.
Har bir o'quvchi uchun,
Kelajakli dunyosan!

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. O'tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarib, o'tilgan mavzuni qismlarga bo'lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: She'ni yod oling. "Aziz ustozim" (hikoya)

O'IBDO': _____ (imzo) _____ (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Opa-singillar

Maqsadlar:

a) ta'limiy maqsad-o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.

b) tarbiyaviy maqsad- badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug'larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o'rgatish.

d) rivojlantiruvchi maqsad-o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

FK - fanga oid kompetensiyalar

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars usuli: suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

III. Yangi mavzu bayoni:

Opa-singillar

Madina va Maftuna ismli qizaloqlar bor bo'lib, ular juda qiziquvchan opa-singil edilar. Har kuni qizlar ota-onalariga juda ko'p savollar berishar, ular esa qizlarining savollariga javob berishga ulgurishmas edi. Shunday bo'lsa-da, savollarning keti uzilmasdi:- Nima sababdan?- Nimaga? Shunday qilib, bir kuni qizlar hovliga, undan ko'chaga chiqib o'ynashdi. Madina cho'ntagidan konfet olib, qog'ozini ochdi-da, tezda og'ziga soldi va konfetning qog'ozini yerga tashladi. Konfetining bittasini Maftunaga berdi. Qizlar xush kayfiyatda o'yinni davom ettirmoqchi bo'lishdi, biroq ularni kuzatib turgan qariya attang qilgancha boshini chayqadi va ulardan so'radi: - Sizlar kimning qizisiz? Ko'chani iflos qilyapsiz-ku, bu ishingiz to'g'rimi? - Men malika bo'laman! - dedi Madina. - Men ham malika bo'laman! - kulib tasdiqladi Maftuna.- Har bir qiz malika bo'lishni orzu qiladi, - deb javob berdi qariya. - Ammo malika o'z yurtini, xalqining mehnatini qadrlaydi. O'sib-ulg'aygan joyini xor qilmaydi. Har bir insonni, uning kasbini hurmat qilish lozim. - Kasb? - ajablanib so'radi Madina. - U nima? U mazalimi? Kattami? Nima uchun u shunday nomlangan?- Siz kasb nima ekanligini bilmaysizmi? -qariya ajablanib so'radi. - Ammo siz allaqachon buni bilishingiz kerak. Bu dunyoda hamma o'z ishini astoydil bajarishi orqali bir-birlariga foyda keltiradi. Shifokor kasallarni davolaydi, o'qituvchi o'quvchilarga ta'lim beradi, haydovchi haydovchilik qiladi, sartarosh odamlarni chiroyli soch turmagi bilan xursand qiladi. Obodonlashtirish xodimlari esa yo'llarni, ko'chalarni supurib tozalashadi. Bularning barchasi kasblar sanaladi, -dedi va o'z yo'lida davom etdi. Qizlar esa qariyaning gapini tushunmay, o'ylanib qolishdi...



Kichkinagina,
kulrang, filga
o'xshaydi.



Kim otni ham, filni ham
hech bir qiyinchiliksiz
ko'tarishga, ularning
joyini o'zgartirishga
qodir?

Elektropoyezd sharqqa tomon
80 km/h tezlik bilan
harakatlanmoqda. Shamol
sharqdan g'arbga qarab 15
km/h tezlik bilan esmoqda.
Poyezddan chiqayotgan tutun
qaysi tomonga qarab
harakatlanadi?



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. O'tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarib, o'tilgan mavzuni qismlarga bo'lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Hikoya mazmunini so'zlab berishga tayyorlaning.

O'IBDO': _____
(imzo) (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Oyog'i osmonda bo'lgan sichqonlar. Roald Dal

Maqsadlar:

a) ta'limiy maqsad-o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.

b) tarbiyaviy maqsad- badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug'larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o'rgatish.

d) rivojlantiruvchi maqsad-o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

FK - fanga oid kompetensiyalar

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars usuli: suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

III. Yangi mavzu bayoni:

Ixtiro nima? Kashfiyot nima?

Ular bir-biridan farq qiladimi?

Roald Dal Bir vaqtlar Levon ismli qariya yashagan ekan. Lining yoshi 87 da bo'lib, umr bo'yi vazmin va xotirjam inson bo'lgan ekan. U kambag'al bo'lsa-da, juda ham baxtli ekan. Levon uyida sichqonlarni payqagan vaqtda, dastlab bu holat uni tashvishga solmabdi. Ammo sichqonlar tobora ko'payib boribdi va ular Levonni bezovta qila boshlabdi. Nihoyat, hatto Levon ham ortiq bardosh bera olmaydigan vaqt kelibdi. "Bunisi endi ortiqcha, - dedi u. - Bunga chidab bo'lmaydi". Qariya uyidan chiqib, oqsoqlangan cha do'kon tomon yo'l oldi. U sichqonlarni tutish uchun do'kondan bir nechta qopqon, yelim va pishloq bo'lagini sotib oldi. Levon uyiga qaytgach, qopqonning asosini yelimlab, shiftga yopishtirdi. Keyin u qopqonlarga pishloq bo'lakchalarini mahkamlab chiqdi. Tunda sichqonlar inlaridan chiqib shiftdagi qopqonni ko'rib, buni hazil deb o'ylashdi. Polda sayr qilib yurgan sichqonlar bir-birlarini turtib, qo'llari bilan shiftni ko'rsatib, kulgidan o'zlarini to'xtata olishmadi. Axir, qopqonni shiftga joylashtirish ahmoqlik-ku, - deyishdi. Ertasi kuni tongda Levon xonaga kirganida birorta sichqon tuzoqqa tushmaganini ko'rib jilmaydi, lekin hech narsa demadi. U stolni olib, oyoqlarining tagiga yelim surtdi va shiftga qopqonlar yoniga teskari holatda yopishtirib qo'ydi. U stol, televizor va chiroq bilan ham xuddi shunday qildi. Levon polda turgan barcha narsalarni teskari qilib, shiftga yopishtirdi. Hattoki, gilamchani ham u yerga yelimlab qo'ydi. Kelasi tunda sichqonlar inlaridan chiqishganida, ular o'tgan tunda ko'rganlarini eslab, hazillashishni davom ettirib kulishar edi. Biroq bu safar ular

shiftga qarashganida, to'satdan kulishdan to'xtashdi.- Xudoyim! - qichqirdi sichqonlardan biri. - Tepaga qaranglar! Axir, pol u yerda-ku!- Ey, Xudo! - faryod qildi yana biri.- Biz shiftda turibmiz, shekilli!- Mening boshim aylana boshladi! - chiyailladi uchinchisi.- Mening miyamga qon quyildi! - yig'lab yubordi to'rtinchisi.- Bu dahshat! - dedi uzun mo'ylovli, sichqonlarning kattasi.- Bu haqiqatdan ham dahshatli! Zudlik bilan nimadir qilishimiz kerak! Agar men boshimda shunday turishda davom etsam, hushimdan ketaman! - deb qichqirdi eng kichigi.- Men ham!- Men bunga ortiq chiday olmayman!- Bizni qutqaring! Nimadir qilinglar tezroq, biror nima qilinglar! Sichqonlar jazavaga tusha boshlashdi.- Men nima qilishimiz kerakligini bilaman, - dedi sichqonlarning kattasi. - Biz boshimiz bilan turib olamiz, o'shanda hammasi yaxshi bo'ladi.Sichqonlar gapga quloq solib, boshi bilan turib oldi. Bir qancha vaqtdan so'ng, miyasiga qon quyilishi sababli sichqonlar birin-ketin hushidan keta boshladi. Levon ertalab xonaga kirgach, yerda yotgan sichqonlarga ko'zi tushdi. U darhol barcha sichqonlarni yig'ib, savatchaga soldi. kashf yoki kashfiyot - tekshirish, ilmiy tadqiqot natijasida, ba'zida tasodifan topilgan , yaratilgan ilmiy yangilik
ixtiro - fan -texnika sohasida kashf etilgan, ijobiy samara beradigan yangilik.



IV.Yangi mavzuni mustahkamlash: o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. O'tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarib, o'tilgan mazuni qismlarga bo'lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

V.O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: yangi mavzuni to'liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

O'IBDO': _____
(imzo) (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Chin va Yolg'on. Po'lat Mo'min

Maqsadlar:

a) ta'limiy maqsad-o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.

b) tarbiyaviy maqsad- badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug'larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o'rgatish.

d) rivojlantiruvchi maqsad-o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

FK - fanga oid kompetensiyalar

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars usuli: suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

III. Yangi mavzu bayoni:

Po'lat Mo'min

Bolalarning sevimli shoiri, bola qalbining bilimdoni,

dillardagini tillarga chiqarib bera olgan yetuk

ijodkor - Po'lat Mo'min ko'plab sara asarlar

muallifidir. Lining "Hunardan unar", "Aql qayerda

bo'lar?", "Oftob va odob", "Endi adashmaydi",

"Rahmatga rahmat", "Yaxshilarga o'xshasam",

"Chanoqvoy bilan Qovoqvoy", "Ustozlar

izidan" kabi

asarlari o'zbek bolalar adabiyoti durdonalaridir.



(1922 – 2003)

Rasmdan “bilim beruvchi beminnat do‘st”ni toping. Fikringizni asoslab bering.




Chin va Yolg'on

Po'lat Mo'min

Bir og'izdan chiqsa ham ikkov,
Chinga Yolg'on bo'lar edi g'ov.
Yolg'on goho og'iz to'ldirib,
Va'da berar rosa ko'pirib.
Sirim aslo ochilmasin deb,
Yurar Yolg'on ich-etini yeb.
Shu sababdan egri yo'l chizar,
Anqov bilan laqmani izlar.
Yomonlarning ko'nglin chog'l etar,
Yaxshilarni yo'ldan chalg'itar.

Hurmat, izzat topganidan Chin,
Yurar edi misoli lochin.
Chin - quyoshning nuriga o'xshar,
Uning bilan hamma yoq yashnar.
Chin - insonga suv va havodir,
Har narsaga doimo qodir.
Kimki bo'lsa, Chinga hamroh, do'st,
Unda bo'lmas sira kam-u ko'st.
Dushmanidan ham battardir Yolg'on,
Unga dildan bermangiz makon.

Maqollarni davom ettiring.



O'tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarib, o'tilgan mazuni qismlarga bo'lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

V.O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: She'ni ifodali o'qing va mazmunini so'zlab bering.

O'IBDO': _____
(imzo) (sana)

6- dars Bo'lim yuzasidan takrorlash.

7- dars STO'

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Nazorat ishi-1

Maqsadlar:

- a) ta'limiy maqsad**-o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.
- b) tarbiyaviy maqsad**- badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug'larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o'rgatish.
- d) rivojlantiruvchi maqsad**-o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

FK - fanga oid kompetensiyalar

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars usuli: suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

III. Yangi mavzu bayoni:

1. Matnni diqqat bilan o'qib chiqing. So'ng savollarga javob bering:

Matn: Kichik Hasan bog'da o'ynadi. U daraxtlar orasida kichik qushlarni kuzatdi. Qu-sh-lar xursand bo'lib xoncha ichida sayray boshladi. Hasan ularni tinch qo'yib, uydagi kitoblarni eslab o'qishni istadi.

Savollar

1) Matnda nechta gap bor? Javob yozing.

2) Quyidagi so'zlardan to'g'ri tartibda kelgan gapni toping:

A) Hasan bog'da o'ynadi.

B) U kitoblarni o'qidi.

C) Qushlar xursand bo'lib sayradi.

3) Quyidagi so'zlardan ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lganini belgilang:

a) tinch – sokin

b) xursand – g'amgin

c) kichik – ulkan

4) Matn bo'yicha qisqacha yozing: Matn kim haqida va nima haqida? (2–3 satr)

2. Matnni diqqat bilan o‘qib chiqing va savollarga javob bering:

Matn: Bahor kuni Masha bog‘ga bordi. U gulzor chetida qumloqda o‘ynayotgan qushlarni ko‘rdi. Qushlar shod-xurram parvoz qilib, yangrayotgan qo‘shiqlarini chiroyli qo‘ydi. Masha ularning go‘zal sayrashini bilan quvonib, uyga qaytdi.

Savollar

1. Matnda nechta gap bor? Javob yozing.
2. Quyidagi gaplardan to‘g‘ri ketma-ketlikda joylashganlarini toping va harfini yozing:
 - o A) Masha bog‘ga bordi.
 - o B) Qushlar sayradi.
 - o C) Masha uyga qaytdi.
 - o D) U qushlarni ko‘rdi.
3. Quyidagi so‘zlardan ma‘nosi bir-biriga yaqin bo‘lganini belgilang:
 - a) shod — xursand
 - b) yangrayotgan — jim
 - c) go‘zal — chiroyli

4. Matn bo‘yicha qisqacha yozing:

Matn kim haqida va nima bo‘ldi? (2–3 satr)

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi.

O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

V. O‘quvchilarni rag‘batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: She‘rni ifodali o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

O‘IBDO‘: _____
(imzo) (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Kuz

Maqsadlar:

a) ta'limiy maqsad-o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.

b) tarbiyaviy maqsad- badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug'larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o'rgatish.

d) rivojlantiruvchi maqsad-o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

FK - fanga oid kompetensiyalar

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars usuli: suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

III. Yangi mavzu bayoni:

Rasmga e'tibor bering. Rasmda nima ifodalanganini qisqacha so'zlab bering.



She'r (arabcha: shuur - sezgi) - fikrning his-tuyg'uga qorishiq ifodasi sifatida vujudga kelgan, hayajonli she'riy nutq bilan ifoda etilgan, ma'lum ichki ohangga ega badiiy asar. "She'r" atamasi o'rniga ba'zan "nazm" so'zi ham qo'llaniladi. She'ming eng kichik ko'rinishi mumtoz adabiyotda 1 baytdangina iborat bo'lib, "fard"; o'zbek folklorida esa 4 qatorni tashkil etib, "to'rtlik" deb ataladi.

Kuz

Suv o'tlari to'la irmoqni
Muzdek qilib qo'ydi sunbula.
Yer tortqilab barqut yaproqning
Yuragiga soldi g'ulg'ula.
Ko'kda yana oppoq turnalar
Arg'imchoqlar solib uchishdi.
Biz maktabga chopdik, tillarang
Terakzorlar yig'lashga tushdi.
sunbula - 12 ta yulduz turkumidan biri bo'lib, sentabr oyiga to'g'ri keladi
barqut - mato turi (yumshoq, mayin) g'ulg'ula - xavotir

Ikkinchi noktyurn. Shopen

1. Tasavvur qiling , mayin yomg'ir yog'ayotgan payt bog 'da shu musiqani tinglab sayr qilmoqdasiz. Xayolingizdan nim a la r kechyapti?
2. Shu musiqa yangrayotgan m u hitni xayolingizda gavdalantring . U yerda nimalar bor?
3. Xayolingizda yaratgan kuz manzarasini qog'ozga tushiring .

IV.Yangi mavzuni mustahkamlash: o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi.

O'tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarib, o'tilgan mazuni qismlarga bo'lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

V.O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: She'rni yod oling.

O'IBDO': _____
(imzo) (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Bir-birin kuzatar fasllar . Po'lat Mo'min

Maqsadlar:

a) ta'limiy maqsad-o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.

b) tarbiyaviy maqsad- badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug'larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o'rgatish.

d) rivojlantiruvchi maqsad-o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

FK - fanga oid kompetensiyalar

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars usuli: suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.


Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

III. Yangi mavzu bayoni:



Bir-birin kuzatar fasllar

Po'lat Mo'min

Bir-birin qay usulda
Kuzatishar fasllar?
Bir-biriga nimalarni
Uzatishar fasllar?
Fasllar bu - Yilboboning
O'g'illari, qizlari.
Har qadamda seziladi
O'ziga xos izlari.
Go'yo ular bir-birining
Qo'llaridan ushlashar.
Gir aylanib, davra qurib,
To'rtov o'yin tusharlar.
Qir-adirni dam oldirib,
Dalalarni uxlatib,
Bahoroyini Qishpolvon ham
Kutar ekan o'xshatib.
Oppoq qordan ko'rpa
yopib,
Oq bo'yoqqa bo'yarkan.
Va zararli mikroblarni
Yo'qotarkan - quvarkan.
Issiqni ko'paytir, deb
Aytar hatto oftobga.
O'z xizmatin o'tar ekan,

Yozilganday kitobga.
Qishpolvon o'z vazifasin
Uch oy ichida o'tarkan.
Xizmat qilish navbat bilan
Bahoroyga o'tarkan.
Bahoroy ham yomg'ir bilan
Yuvar ekan yerlarni.
Yaxshilikka burkar ekan
Dalalarni, qirlarni.
Daraxtlarga taqar ekan
Turfa-turfa chechaklar.
Shamol mayin-mayin esib,
Aytar qo'shiq-ertaklar.
Dehqon esa yer bag'riga
Chigit, urug' qadarkan.
Shu tufayli quyosh yerni
Nurin sochib, sevarkan.
Bahoroyning mehnatidan
Yashararkan keng olam.
Belni bog'lab, terlar to'kib,
Yayrar ekan, el, odam.
Ko'p narsani tayyor qilib,
Bog'lardan gul terarkan.
Go'zal yozga bahoroyim

"Keling", deb gul
berarkan.
Vazifasin bajarishga
Kirishganda go'zal yoz.
Eng avvalo, Quyosh bobo
To'sharkan nur-poyandoz.
Paxtalar ham yetilarkan,
Yulduz-yulduz chanoqda.
Gul faslning fazilatini
Ko'rish mumkin har
yoqda.
Har narsani tayyor qilib,
Topshirar kuz o'g'longa.
Mo'l hosilni yig'ish uchun,
Kuz tusharkan maydonga.
Kuzdan qabul qilish uchun
Qishpolvon ham shaylanar.
Har bir fasl oy, kun bilan
Bir-biriga bog'lanar.
Har biriga gal kelarkan
Bir martadan bir yilda.
Yilboboning farzandlari
Xizmatda shu zaylda.

Rasmlarga qarang. Har bir faslning ta'rifini she'rdan topib o'qing.



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi.

O'tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarib, o'tilgan mazuni qismlarga bo'lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uygah vazifani e'lon qilish: She'rni ifodali o'qib, mazmunini so'zlab bering

O'IBDO': _____
(imzo) (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Tog'lar. Azim Suyin

Maqsadlar:

a) ta'limiy maqsad-o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.

b) tarbiyaviy maqsad- badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug'larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o'rgatish.

d) rivojlantiruvchi maqsad-o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

FK - fanga oid kompetensiyalar

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars usuli: suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.


Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

III. Yangi mavzu bayoni:



Tog'lar

Azim Suyun

Sahrolardan, bog'lardan kechdim,
Burgut kabi balandlab uchdim.
Cho'qqilardan cho'qqiga ko'chdim,
O, bunchalar go'zal bu tog'lar!
Daralarga ochib keng quchoq,
Quchog'ida yayradim uzoq.
Ko'kida oy-chashma yarqiroq,
O, bunchalar go'zal bu tog'lar!
Havolarda ajib-ajib hoi,
Na'mataklar qoyada xushhol.

Ranglar zilol, ohanglar zilol,
O, bunchalar go'zal bu tog'lar!
Kakliklari bilan ellashdim,
Tug'donalar bilan tillashdim.
Andizlari bilan sirlashdim,
O, bunchalar go'zal bu tog'lar!
Buloqlarda yuvdim yuzimni,
Oydinlatdi xira ko'zimni.
Charaqlatdi tun, kunduzimni,
O, bunchalar go'zal bu tog'lar

tug'dona - toshdaraxt, qayrag'ochdoshlar oilasiga mansub bo'lib, barg to'kadigan, doim iy yashil daraxtlar turkumiga kiradi

andiz - qoqidoshlar oilasiga mansub ko'p yillik dorivor o't

Sayyoramizdagi ichimlik suvining qariyb 80 foizi tog'larda to'planadigan qorlardan hosil bo'ladi.

Quyosh sistemasidagi eng baland tog' - bu Marsda joylashgan Olympus Mons. Dunyoning eng baland cho'qqisi Everest tog'idir. Bu tog' Himolay tog' tizmasida joylashgan. 2021-yil ushbu cho'qqini o'zbekistonlik alpinist Sergey Denisenko zabt etib, "O'zbekiston iftixori" faxriy unvoniga sazovor boldi. Tog'lar dunyo landshaftining beshdan birini tashkil qiladi va dunyo aholisining kamida o'ndan bir qismi tog'li hududlarda yashaydi. Dengiz tubida ham tog'lar bor.



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi.

O'tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarib, o'tilgan mavzuni qismlarga bo'lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: She'rni yod oling.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Karim polvon. Abdulla Saidov

Maqsadlar:

a) ta'limiy maqsad-o'quvchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.

b) tarbiyaviy maqsad- badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug'larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o'rgatish.

d) rivojlantiruvchi maqsad-o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

FK - fanga oid kompetensiyalar

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars usuli: suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

III. Yangi mavzu bayoni:

Rasmga e'tibor bilan razm soling va undagi hayvonlar nomini ayting. Uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlarni alohida guruhlarga ajrating



Kuz kelishi bilan Oyqor tog'i etagidan to qishloqlarning qir-adirlarigacha qiyg'os gullarga burkanib, chamanzorga aylanadi. Ekinzor va bog'lar yanada yashnab ko'zni quvontiradi. Bu paytda qishloqlarda turli tantana, marosim va to'y-hashamlar bir-biriga ulanib ketadi. Odamlarning xursandchiligi va shod-xurramligining chek-chegarasi yo'q. Sayhonlikda xalqimizning iftixori bo'lgan milliy o'yinlar hamda Rasmga e'tibor bilan razm soling va undagi hayvonlar nomini ayting. Uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlarni alohida guruhlariga ajrating. uloq-ko'pkari bahslariga hozirlik ko'rilga boshlanadi. Mahalliy aholi musobaqa oldidan bu yerga sekin-asta ko'chib kela boshlaydi. Ko'pchilikning nigohi otlarga qaratilgan. Otlar orasida yulduzni ko'zlovchi to'riq, buyruq, qamishquloq, oqqoptol, chavkar kabi zotdor otlar ham bor. Murosasiz bahslarda ularning qaysilari katta sovrinlarga ega bo'lisharkin? Qaysi suvoriyga omad kulib boqarkin? Mana, bir necha kundirki, Karim polvon jilvalarga boy jiyron qashqasini mehr bilan yuvib-tarab, parvarishlaydi. Uloq-ko'pkari bahslarida qatnashish uchun yolg'a yangi taqa ham qoqtirib chiqqan. Bugun Karim polvon uchun o'zgacha kun. Butun fikr-u xayoli jiyron qashqasida. G'alabani yuki og'ir bo'ladi. U bir piyola choy ichar-ichmaso'midan qo'zg'aldi. Egar-jabduqlarini ko'zdan kechirib, maydon tomon ot soldi. U ot ustida ortiqcha kuch ishlatmas, o'zini erkin tutar, nigohi to'dadagi otlarga qaratilgandi. Karim polvon uloq olib kelayotgan shopmo'ylov davangirga ro'para keldi. Uning uloqni mahkam tutib kelayotgani ko'rinib turardi. Atrofida sheriklari ham bor. Uch otliq bir yon boldi, Karim polvon bir tomon. Shunda polvon raqibining dimog'i balandligiga parvo qilmay, uloqning oldingi oyoqlaridan siqib ushlab, baravar ot choptirib ketaverdi. U yo'l-yo'lakay uloqni tortib olgach, taqimiga yaxshilab bosdi-da, arg'umog'ini shartta yon tomonga burdi. Raqibning oti o'z zalvari bilan oldinga o'tib ketdi. Polvon tezroq to'dadan chiqishga intilardi. Bakovul baland ovoz bilan: "Chavandozlarning ustozlari Karim polvon g'olib bo'ldi", deya e'lon qilganda, shu yerda hozir bo'lganlar uning sha'niga tahsinlar o'qishdi.



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. O'tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarib, o'tilgan mavzuni qismlarga bo'lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Hikoya mazmunini so'zlab berishga tayyorlaning.

O'IBDO': _____
 (imzo) (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Chorining qobiliyat. (PIRLS)

Maqsadlar:

a) ta'limiy maqsad-o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.

b) tarbiyaviy maqsad- badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug'larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o'rgatish.

d) rivojlantiruvchi maqsad-o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

FK - fanga oid kompetensiyalar

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars usuli: suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

III. Yangi mavzu bayoni:

Rasmdagi meva va sabzavotlar nomini ayting.
Ular haqida qanday qiziqarli ma'lumotlarni bilasiz?



Chorining qobiliyati

Yoz fasli endigina boshlangan. Chori o'zining uyi oldidagi bog'da ishlayotgan edi. U yo'lda to'p tepib ketayotgan do'sti Davronni ko'rib qoldi. Davron to'xtab, unga qo'l silkitdi. "Yozda nima qilmoqchisan?" - deb so'radi do'stidan Chori. "Bizning futbol jamoamiz katta turnirga tayyorlanmoqda. O'ylashimcha, bu yil g'olib bo'lamiz", - deb javob berdi Davron. "Voy... bu juda zo'r-ku", - dedi xursand bo'lib Chori. Ular gaplashib bo'lganlaridan so'ng Davron yana yugurib ketdi, Chori esa urug'larni ekishda davom etdi. "Futbol jamoasida bo'lganimda edi, - deya o'ylab qoldi u. - Men ham tayyorgarlikni boshlashim kerak..." Chori keyingi haftada maydonga bordi. U futbol jamoasidagi bolalarni tanir edi. Chori ularga qo'shilib maydonda o'ynadi, biroq natija yaxshi bo'lmadi. Uning oyoqlari chalishib ketdi va raqib jamoasi uchun gol urib qo'ydi. U o'yin so'ngida futbolga qobiliyatsizligini tushunib yetdi. Chori oyog'ini sudrab uyiga qaytdi. So'ng yana o'zining bog'ida ishlay boshladi. Bir kuni u ko'chada Jamilani uchratib qoldi va: "Salom, Jamila, - dedi. - Yoz fasli uchun sening qanday rejalaring bor?" Jamila: "Men ko'p qo'shiq kuylayapman. Bizning xor jamoamiz katta konsertga tayyorlanyapti", - deb javob berdi. Bu xabarni eshitgan Chori xo'rsindi. U buni qiziqarli deb o'ylardi. Kuylashni bilganimda edi...

To'satdan yozni chopiq ishlari bilan shug'ullanib o'tkazish u uchun ahmoqona ishdek tuyildi. Bir necha haftadan so'ng Chori yangi xor jamoasi tashkil etilayotgani haqidagi e'lonni ko'rib qoldi. U ushbu jamoada qatnashishga urinib ko'rmoqchi bo'ldi. Chori qo'shiq kuylar ekan, uning ovozi titrab, chiyillab chiqardi. Uning ovozini eshitgan hay'at a'zolaridan birining yuzi burishdi. Bundan Chori tanlovdan o'ta olmaganini tushundi. Chori uyiga qaytib, yana bog'da ishlay boshladi. "Barcha do'stlarim o'ziga yarasha qobiliyatga ega, - deb o'ylardi u. - Men ham biror sohada zo'r bo'lsam edi..." Yozning qolgan qismida ham Chori o'z qobiliyatini aniqlashga urindi. Har bir yangi mashg'ulotidan so'ng Chori boshini egganicha uyiga qaytar va vaqtini o'zining bog'ida o'tkazar edi. Yoz faslining oxiriga kelib, Chori do'stlari Jamila va Davronni yana uchratib qoldi. "Katta futbol turniri qanday o'tdi?" - deb so'radi u Davrondan. "Biz yutdik", - deb javob berdi Davron. Konsert qanday o'tdi?" - so'radi Chori Jamiladan. "Ertaga bo'ladi, bizning xor jamoamiz juda ham qattiq tayyorlandi va men yakxaxon bo'lib kuylayapman", - dedi Jamila.

"Tabriklayman, - dedi Chori ularga. - Men ham biror nima bilan faxrlansam edi". "Hazillashyapsanmi?" - dedi Jamila. - Sening bog'ingdagi meva va sabzavotlar judayam mazali! Men har doim biror narsa o'stirishga harakat qilaman, lekin hammasi so'lib, qurib qoladi". "Rostdanmi?" - dedi Chori hayajon bilan. - Men hech qachon bog'bonlik kasbi shunchalar muhim deb o'ylamagan edim. Ertaga ikkalangiz Davronning futbolda g'alaba qozonganini nishonlash uchun biznikiga keling! Onam bog'imizdagi narsalardan kechki ovqat tayyorlab beradilar, so'ng birgalashib Jamilaning konsertini tomosha qilishga borishimiz mumkin".



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. O'tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarib, o'tilgan mavzuni qismlarga bo'lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Hikoyani so'zlab berishga tayyorlaning.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Hunarning hidi qanaqa? Janni Rodari

Maqsadlar:

a) ta'limiy maqsad-o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.

b) tarbiyaviy maqsad- badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug'larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o'rgatish.

d) rivojlantiruvchi maqsad-o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

FK - fanga oid kompetensiyalar

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars usuli: suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

III. Yangi mavzu bayoni:

Janni Rodari

Janni Rodari - italiyalik buyuk yozuvchi. U "Quvnoq she'rlar kitobi" to'plami bilan bolalar adabiyotiga kirib kelgan. Uning "Chipollinoning sarguzashtlari", "Telefonda aytilgan ertak", "Salom bolalar", "Jelsomino yolg'onchilar mamlakatida" va boshqa ko'plab asarlari o'zbek tilida nashr etilgan. Rodari asarlari soddaligi, bolalarcha beg'uborligi bilan ajralib turadi.



(1920 – 1980)

Nima deb o'ylaysiz, kasb va hunar bir-biridan farq qiladimi? Rasmlardagi kasb-hunar turlari haqida nimalarni bilasiz?



Hunarning hidi qanaqa?

Janni Rodari

Har hunarning o'zicha
Bordir hidi - belgisi.
Novvoyxonadan kelar
Xamirturushning isi.
Ustaxona yonidan
O'tib qolsang-chi agar,
Yangi taxta, payraha
Hidi dimoqqa tegar.
Bo'yoqchida bo'yoqning
Hidi bo'ladi har xil.
Oyna quchog'idan ham

Zamaska hidi anqir.
Haydovchining kurtkasida
Benzin hidi bor doim.
Ishchining kiyimidan
Kelar mashina moyi.
Qandolatchidan esa
Mag'izning hidi kelar.
Shifokorning xalatidan
Anqir xushbo'y dorilar.
Omoch ortidan asta
Dalada yurar dehqon.

Tuproq va o'tloq hidi
Bo'lar unda har qachon.
Baliqchining egndan
Dengiz hidi chiqqanday.
Faqat bekorchilarning
Hidi bo'lmas hech qanday.
Ishyoqmasboy qanchalik
Atir sepsin, behuda!
Bolalar! Uning hidi
Hech kimga yoqmas sira!



Berilgan rasmlarga qarang. Rasmdagi ish qurollari qaysi kasb-hunar egalariga tegishli?



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. O'tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarib, o'tilgan mavzuni qismlarga bo'lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: She'rni yod oling.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

15- dars STO'

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Nazorat ishi - 2.

Maqsadlar:

a) ta'limiy maqsad-o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.

b) tarbiyaviy maqsad- badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug'larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o'rgatish.

d) rivojlantiruvchi maqsad-o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

FK - fanga oid kompetensiyalar

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars usuli: suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

III. Yangi mavzu bayoni:

1. Matnni diqqat bilan o'qib chiqing va savollarga javob bering:

Matn: *Erta tongda Oybek bog'da sayr qildi. U daraxtlar tagida uchib yurgan kapalaklarni kuzatdi. Kupalaklar shod-hursand parvoz qilib, rang-barang gullar atrofida uchishdi. Oybek ularning go'zal qanotlariga hayrat bilan boqdi va uyiga quvonch bilan qaytdi.*

Savollar

1) Matnda nechta gap bor? Javob yozing: _____

2) Quyidagi gaplardan to'g'ri ketma-ketlikda kelganlarini toping va harfini yozing:

A) Oybek bog'da sayr qildi.

B) U kapalaklarni kuzatdi.

C) Kupalaklar atrofda uchdi.

D) Oybek uyga qaytdi.

Javob: _____

3) Quyidagi so'zlardan ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lganini belgilang:

a) ertalab — tong

b) shod — g'amgin

c) go'zal — chiroyli

Javob: a) ____ b) ____ c) ____

4) Matn bo'yicha qisqacha yozing:

Matnda kim haqida va u nima qildi? (2–3 satr)

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. O'tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarib, o'tilgan mazuni qismlarga bo'lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: She'rni yod oling.

O'IBDO': _____
(imzo) (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Baliq ovida. Mahmud To'ychiyev

Maqsadlar:

a) ta'limiy maqsad-o'quvchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.

b) tarbiyaviy maqsad- badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug'larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o'rgatish.

d) rivojlantiruvchi maqsad-o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

FK - fanga oid kompetensiyalar

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars usuli: suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

III. Yangi mavzu bayoni:

Qani toping-chi...

Mahmud To'ychiyev

O'n bitta baliq bugun
Daryoda xo'p suzishdi
Baliqchining to'riga
To'rttasi tappa tushdi.

So'ngra yana uchtasin,
Baliqchi ushlab oldi.
Qani toping-chi, o'rtoq,
Nechtasi qochib qoldi?



Baliq ovida

Mahmud To'ychiyev

Baliq tutish-chun bir kun,
Dilshod, men hamda
Omon.
Yo'l oldik daladagi
Huv, katta anhor tomon.
Qo'lda tutib qarmoqni,
Xaltachaga non soldik.
Uzoq ekan anhor ham,
Yetguncha ancha toldik.
Manzilga yetgach, suvga
Qarmoqlarni tashladik.
Qachon baliq tortar deb,
Intiq kuta boshladik.
Birdan qarmoq po'kagi
Suvda o'ynab qoldi-ku.
Tez yopishib dastakka
Qirg'oq tomon oldik-ku.
“Baliq tutolmaysiz”, deb

Nortoy birga bormadi.
“Biz bilan yurgin”, desak,
Gapga quloq solmadi.
Buni qarang, qarmoqqa
llinibdi qurbaqa.
Chiqarib olib tezda
Uloqtirdim yiroqqa.
Dilshodning xo'ragiga
llingandi zo'r “laqqa”.
Uni tutib qololmay,
Tushdi-ku, o'zi laqqa.
Omon-chi, chuvalchangni
llaman deb qarmoqqa.
Qarmoqning “tilcha”sini
Sanchib oldi barmoqqa...
Baliq tutish yo'rig'in
O'rganib ham oldik biz.
Anchagina baliqni
Chelakchaga soldik biz.

Oftobda ham toblandik,
Hatto cho'mildik biroz.
Tabiat quchog'ida
Yayramoq qandayin soz.
Yo'l oldik uyimizga
Kech kirib, kun botar
choq.
Kayfiyatlar zo'r edi,
Qo'shiq aytdik shod-
quvnoq.
Qaytishda uchratdik biz
Nortoyboyni qishloqda.
Havas-la qarab turar,
Bizga Nortoy yiroqdan.
O'ljamizni ko'rsatib,
Maqtanib qo'ydik toza.
Ovga bormaganiga
Afsus qildirdik rosa.



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. O'tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarib, o'tilgan mavzuni qismlarga bo'lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: She'rni ifodali o'qing

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Odob. Muhabbat Hamidova

Maqsadlar:

a) ta'limiy maqsad-o'quvchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.

b) tarbiyaviy maqsad- badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug'larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o'rgatish.

d) rivojlantiruvchi maqsad-o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

FK - fanga oid kompetensiyalar

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars usuli: suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

III. Yangi mavzu bayoni:

Muhabbat Hamidova

Muhabbat Hamidova - jurnalist, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, "Shuhrat" medali sohibasi. U bolalarning sevimli jurnali - "GulxarY'da 46 yildan ziyod faoliyat yuritib, shu yerda kamol topgan. Uning "Vaziyat o'zgardi", "O'rganib ketadi", "Odamning o'rni" kabi asarlari kitobxonlar e'tirofiga sazovor bo'lgan.



Rasmlarni kuzating.
Vaziyatni ta'riflang.





Odob

Madina endi 3-sinfda o'qiydi. Lekin juda mahmadona. Hamma narsaga aralashaveradi. Mahalladagi ayollar Karima opoqi nevarasini "qovurib" olgan, deb kulishadi. Bir kuni Hakima xola ko'chasini supurayotgan edi. Madina darvozadan chiqib, bir zum unga qarab turdi-da, asta yoniga borib salom berdi. Key in:- Opoqi, nega o'zingiz supuryapsiz? Kelinoyimga aytasangiz bolmaydimi? Axir, kampirar ish qilsa, uyat bo'ladi-ku, - dedi dabdurustdan. Hakima xola qaddini ko'tarib, supurgini yerga tashladi-da: - Obbo qaqajon-ey, hali men senga kampir bo'lib qoldimmi, - dedi. - Meni xafa qilding-ku. Mavjuda kelinoying sigir s o g 'y a p ti, Halima opang nonushta tayyorlayapti. O'zing nega maktabga bormading yoki ko'chani qolganini supurib berasanmi? - Supurgingizning kattaligini qarang, men uni ko'tarolmayman. Hali nonushta qilmaganman, buvijonim qidirib qoladilar, - dedi Madina. - Darsga borasanmi? - Bormayman, o'qituvchimiz kasalmi, kecha maktabga kelmadi. - Madina shunday deb uyiga yo'l olarkan, qo'shib qo'ydi: - Mayli, men ketdim. Halima opamga salom deb qo'ying. - Tavba, buncha mahmadona bu qizcha. Xuddi katta odamni kichkina qilib qo'yganga o'xshaydi. Gapi o'zini bosib qolay deydi-yu, qolingizdan supurgini olmaydi, - dedi boyadan beri eshigi oldida ularni kuzatib turgan Matluba kelinoyi Hakima opoqi bilan ko'risharkan. - Ha, shunga men ham ajablanib turgandim, - dedi Hakima opoqi. - Nega orqamdan yomonlayapsizlar? Birovni g'iybat qilish gunoh, - taqqa to'xtadi Madina. - O'zingizning qizingiz Mavjuda nega ko'chaga suv sepmay, chelakni sizga berib q o 'y i b d i? G'irt dangasa u. Darsda ham uxlab o'tiradi. - Voy-voy, og'zingga qarab gapir. Qachondan buyon savob bilan gunohni ajrata qolding, qaqajon, - bo'sh kelmadi Matluba kelinoyi. - Buvijonim o'rgatganlar, kichkinaligimdan bilaman. - Ha durust, lekin buving yoshingga yarashmagan gaplarni gapirma, deb o'rgatmabdilar-da. Buvijoningni ko'rsam, aytib qo'yaman ...

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. O'tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarib, o'tilgan mazuni qismlarga bo'lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Matnni ifodali o'qing. Insoniy fazilatlar haqida klaster tayyorlang.

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Insoniy fazilatlar to'g'risida maqollar

Maqsadlar:

a) ta'limiy maqsad-o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.

b) tarbiyaviy maqsad- badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug'larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o'rgatish.

d) rivojlantiruvchi maqsad-o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

FK - fanga oid kompetensiyalar

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars usuli: suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

III. Yangi mavzu bayoni:

Insoniy fazilatlar to'g'risida maqollar Fazilat nima? Salbiy xislat deganda nimani tushunasiz?

Misol keltiring. Sizningcha, eng yaxshi insoniy fazilatlar qaysi? Nima deb o'ylaysiz, fazilatlarni qanday shakllantirish mumkin? Salbiy xislatlardan qutulsa boladimi?

Maqollarni o'qing. Mazmunini izohlang.

Kattaga hurmatda bo'l,

Kichikka izzatda.

Boshingga qilich kelsa ham, rost gapir.

Yaxshilik yerda qolmas.

Yaxshi so'z - jon ozig'i,

Yomon so'z - bosh qozig'i.


Kamtarga kamol, manmanga zavol.

Sihat tilasang, ko'p yema,

Izzat tilasang, ko'p dema.

Maqollar xalq tomonidan yaratilgan hikmatli iboralardir. Maqollar xalq donishmandligi ramzi hisoblanadi. Chunki ular xalqning hayotiy tajribalari va kuzatishlari asosida yaratiladi. Maqollar og'izdan og'izga o'tib, sodda, tushunarli va ixcham ko'rinishda bizgacha yetib kelgan. Ularni qo'llash nutqning ta'sirchanligini oshiradi. Maqollarda bildirilgan fikrlarga amal qilish esa insonni go'zal fazilatlar egasiga aylantiradi.

Rebusni yeching. Maqolni izohlang.



Sonlar ishtirok etgan maqollarni davom ettiring

1. Sanamay,
2. Bir yigitga
3. Yetti o'lchab,
4. O'nta bo'lsa,

Maqol so'zining turli xalqlarda turlicha
atalishi^{ga} e'tibor bering.

Maqol – o'zbekcha

Proverbe – fransuzcha

Пословица – ruscha

Proverb – inglizcha

Sprichwort – nemischa

Proverbio – italyancha



IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi.

O'tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarib, o'tilgan mavzuni qismlarga bo'lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Maqollarni yod oling. "Insoniy fazilatlar" daraxtini chizing va uning barglariga fazilatlarga mos maqollar yozing.

O'IBDO': _____
(imzo) (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Yaxshilik. Farhod Musajonov

Maqsadlar:

a) ta'limiy maqsad-o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.

b) tarbiyaviy maqsad- badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug'larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o'rgatish.

d) rivojlantiruvchi maqsad-o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

FK - fanga oid kompetensiyalar

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars usuli: suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vahti
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

III. Yangi mavzu bayoni:

Farhod Musajonov

Farhod Musajonov - o'zining qisqa hajmli va hayajonli hikoyalari, mazmunder qissalari, qalblarni to'lqinlantiradigan pyesalari bilan bolalarning quvonchlariga quvonch ulasha olgan yozuvchi. Lining "Oftobni quvlab", "Turdi, galstuk va men", "Chevar qiz", "Chin do'stlik", "Daradagi qishloqda", "Buloq suvi", "Turdi, velosiped va men", "Tekin tomosha" kabi asarlarini kitobxonlar zo'r ishtiyoq bilan mutolaa qiladilar.



(1933–2013)

**Yaxshilik nur keltirar,
Yomonlik – zulmat.**

Yaxshilik

Farhod Musajonov

Fazliddin o'rtog'i Nabi bilan ko'chada o'ynab yurardi. Shu payt ular qo'shnilari Normamat boboning kelayotganini ko'rib qolishdi. Cholning qo'lida tugunchasi ham bor edi. Fazliddin hovliqib, o'rtog'iga kerildi: - Hozir-chi, men borib Normamat bobomlarga yordam beraman. Bilasanmi, men doim qariyalarga yordam beraman. Meni Normamat bobo juda yaxshi ko'radilar. Ishonmasang, men bilan yur, o'zing ko'rasan. Bolalarga yaqinlashib qolgan Normamat bobo Fazliddinning so'zlarini eshitdi chog'i, miyigida jilmayib qo'ydi. Fazliddin boboning oldiga yugurib bordi va uning qo'lidagi tugunchasini oldi. - Bobo, keling, yordamlashib yuboraman. Sizga doim yordam beraman-a? - so'radi Fazliddin, Nabi eshitishi uchun jo'rttaga ovozi ko'tarib. - Ha, har doim yordam berasan, - boshini qimirlatib tasdiqladi Normamat bobo. Fazliddin oldinda, Normamat bobo orqada, yo'lga tushdilar. Normamat bobo uyga yetganidan keyin Fazliddinning qo'lidan tugunchani oldi. Lekin har galgidek: "Barakalla, bo'talog'im, odobli bola ekansan", - deb maqtamadi. Faqat quruqqina qilib: "Rahmat", - dedi va engashib, Fazliddinning qulog'iga allanarsalar deb pichirladi. Keyin kulimsiragancha, uyiga kirib ketdi. Fazliddin noqulay ahvolga tushib qoldi. Labini tishlab, chap oyog'i bilan yer chizib qoldi. O'rtog'i uning yoniga yugurib keldi. - Ha, nega nafasing ichingga tushib ketdi? - so'radi Nabi. - Normamat bobo nima dedilar? Fazliddin boshini ko'tarmadi. - Nega indamaysan? - Normamat bobo yaxshilik qil, lekin maqtanib yaxshiligingni yuvib yuborma, dedilar, - zo'rg'a javob berdi Fazliddin.



Tez ayting.

Darsda Nasim rasm soldi,

Nasim rasmga razm soldi.

Temur bilan Yo'lchi - temiryo'lchi,

Temiryo'lchiga aytib ko'r-chi.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi.

O'tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarib, o'tilgan mavzuni qismlarga bo'lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Hikoyani ifodali o'qing. Hikoya mazmuniga mos maqollar topib, yozib keling.

O'IBDO': _____ (imzo) _____ (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Filipok. Lev Tolstoy

Maqsadlar:

a) ta'limiy maqsad-o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.

b) tarbiyaviy maqsad- badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug'larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o'rgatish.

d) rivojlantiruvchi maqsad-o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

FK - fanga oid kompetensiyalar

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars usuli: suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

III. Yangi mavzu bayoni:

Lev Tolstoy — mashhur rus yozuvchisi. U dunyo adabiyotining nodir namunalari bo'lgan “Urush va tinchlik”, “Iqrornoma”, “Hojimurod” kabi yirik asarlar bilan birga bolalar uchun ham ko'plab ijod namunalarini yaratgan. Uning bolalar uchun yozgan “Bog'bon va bolalar”, “Bolalik”, “O'smirlik”, “Odamga qancha yer kerak?”, “Arslon bilan it”, “Mo'ysafid olma ekdi”, “Uch ayiq”, “Filipok” asarlari ko'plab tillarga tarjima qilingan. Jadidlarning bolalarga mo'ljallangan darsliklariga ham ba'zi hikoyalari kiritilgan.



Rasmda nima ifodalangan? Ta'riflang.



Filipok

Lev Tolstoy

Bir bola bo'lib, uning ismi Filipp edi. Erta tongda uning akalari maktabga ketishdi. Filipp ham shlyapasini olib, ularning ortidan ketmoqchi bo'ldi. Ammo onasi unga:- Qayoqqa ketyapsan, Filipok? - dedi.- Maktabga, - deya javob berdi Filipok.- Sen hali juda yoshsan, bormaysan, - deya onasi uni uyda qoldirib ketdi. Bolalar maktabga ketishdi. Dadasi o'rmonga, onasi kunduzgi ishga - navbatchilikka ketdi. Kulbada Filipok pechka ustidagi buvisi bilan birga qoldi. Buvisi uxlab qolgach, Filipok yolg'iz zerikdi va shlyapasini qidira boshladi. U o'zining shlyapasini topa olmagach, otasining eski shlyapasini kiyib, maktabga bordi. Maktab qishloqdan tashqarida, cherkov yonida edi. Filipp o'zi yashaydigan hududdan o'tayotganda, itlar unga tegmadi, uni tanidi. Ammo u boshqa odamlarning hovlisiga o'tganda, oldidan Bug laqabli it sakrab chiqib, unga qarab hura boshladi. Bugning orqasida katta it Volchok ham bor edi. 4 Filipok qocha boshladi, itlar uning orqasidan quvdi. Filipok qichqirganchachopaverdi va to'satdan qoqilib yiqildi. Uning oldidan bir kishi chiqib qoldi va itlarni haydab yubordi. So'ng Filipokka qarab dedi: "Qayerdansen, nega yolg'iz yugurib yuribsan?" Filipok u kishiga hech narsa demay, bor kuchi bilan yugurgancha maktab tomon yo'l oldi. Maktab ayvonida hech kim yo'q edi, ichkarida esa bolalarning ovozi eshitilardi. Filipokda qo'rquv paydo bo'ldi va u nima qilishni o'ylay boshladi. Filipok sekin eshik tomon yurdi va shlyapasini yechib, eshikni ochdi. Sinfxona bolalar bilan gavjum edi.- Kimsiz? - deya baqirdi o'qituvchi Filipokka. Filipok shlyapasini qo'lga oldi, biroq unga hech narsa demadi.- Siz kimsiz? Filipok yana jim qoldi. U juda qo'rqqanidan gapira olmasdi.- Gaplashishni xohlamasangiz, uyingizga boring. Filipok javob bera olganida xursand bo'lardi-yu, ammo uning tomog'i qo'rquvdan qurib qolgan edi. U o'qituvchiga qarab yiglay boshladi. Shunda o'qituvchining unga rahmi keldi. Boshini silab, o'quvchilardan bu bola kimligini so'radi.- Bu Filipok, Kostyushkaning ukasi, u anchadan beri maktabga borishni onasidan so'raydi, lekin onasi unga ruxsat bermaydi.- Xo'sh, akangizning yonidagi o'rindiqqa o'tiring, men onangizdan maktabga kelishingiz uchun ruxsat berishini so'rayman. O'qituvchi Filipokka harflarni ko'rsata boshladi, Filipok esa ularni allaqachon bilar va biroz o'qiy olardi. Qani, ismingizni oqib bering-chi. Filipok o'qiy boshladi:- Hve-i-hvi, le-i-li, pe-ok-pok. Hamma kulib yubordi.- Yaxshi, - dedi o'qituvchi. - Sizga o'qishni kim o'rgatgan? Filipok ju r'at etib dedi:- Kostyushka. O'shandan beri Filipok bolalar bilan maktabga qatnay boshladi.

Betxoven. "Elizaga" Siz tinglagan musiqada qushlar osmon-u falakda chug'urlashib, bir-birlari bilan o'ynab parvoz etishmoqda. Bu manzara musiqaning qaysi qismiga mos?

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi.

O'tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarib, o'tilgan mazuni qismlarga bo'lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

V. O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Hikoyani ifodali o'qing

O'IBDO': _____

(imzo)

(sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Dum-dumaloq qo'ng'iz. Aziz Abdurazzoq

Maqsadlar:

a) ta'limiy maqsad-o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.

b) tarbiyaviy maqsad- badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug'larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o'rgatish.

d) rivojlantiruvchi maqsad-o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

FK - fanga oid kompetensiyalar

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars usuli: suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

III. Yangi mavzu bayoni:

1. Hasharotlar haqida qanday qiziqarli ma'lumotlarni bilasiz?
2. Siz hech qo'ng'izlarni kuzatganmisiz?
3. Qanday qo'ng'iz turlarini bilasiz?



Dum-dumaloq qo'ng'iz yurgan yo'lida, ko'pincha, dumalab-dumalab ketar ekan. Judayam semizlikning foydasi yo'q-da. U to'ppa-to'g'ri, tep-tekis yo'lda imillab-simillab bo'lsa ham yura olar ekan-u, ammo do'ng joylarda, o'ydim-chuqur yerlarda, goh tepaga chiqishda, goh pastga tushishda dumalab ketar ekan. Shunaqa vaqtda dumalab-dumalab, keyin to'g'ri yurib qolsa-ku yaxshi, biroq chalqancha tushib, oyog'i osmondan bo'lib qolsa, uzoq vaqt tipirchilab, g'o'ng'illab yotar ekan. Bir kuni shunaqa chalqanchayotib, ancha vaqt qiynalibdi. Baxtiga o'sha atrofda Mirzasher degan bolaning Dumdor nomli chumchug'i o'ynab yurgan ekan. U dum-dumaloq qo'ng'izning yordam so'rab g'o'ng'illaganini eshitib qolibdi-yu, pirillab uning yoniga uchib boribdi.- Voy, nima bo'ldi senga? - so'rabdi Dumdor.- Ko'rib turibsan-ku, nima bo'lganini, - debdi dum-dumaloq qo'ng'iz ho'ng-ho'ng yig'lab.- Yiglama, men senga yordam beraman, - debdi Dumdor.U pirillagancha uchib, Mirzasherning bog'iga boribdi. U vaqtda Mirzasher bog'dagi so'rida o'tirgancha Dilshod bilan Shahnozaga qalin kitobdagi ertaklardan o'qib berayotgan ekan... Dumdor pirillab kelib so'riga qo'nibdi-da, dum-dumaloq qo'ng'izning ahvolini tushuntiribdi. Mirzasher kitobni yopib, so'rida qoldiribdi-da:- Qani, ketdik bolalar, dum-dumaloq qo'ng'izga tezda yordam berishimiz kerak, - debdi. Mirzasher Dumdor boshlagan tomonga ketaveribdi. Dilshod, Shahnoza, Oqgul ham unga ergashib boraverishibdi. Ular Dumdor ko'rsatgan joyga yetib borishgach, Mirzasher qiynalib yotgan dum-dumaloq qo'ng'izni oyoqqa turg'azib qo'yibdi-da, unga tayinlab:- Mehnat qilish kerak, qora baqaloq, - debdi. - Chumolilarga o'xshab ishlagin. O'shanda ortiqcha semirmaysan, sal-pal ozasan, chopqillab-chopqillab yurasan, nuqul yiqilavermaysan. - Xo'p, endi harakat qilaman, - debdi dum-dumaloq qo'ng'iz. Mehnatning inson hayotidagi o'rni haqida kichik matn tuzing.

IV.Yangi mavzuni mustahkamlash: o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi.

O'tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarib, o'tilgan mazuni qismlarga bo'lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

V.O'quvchilarni rag'batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o'quvchilar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Hikoyani ifodali o'qing.

O'IBDO': _____
(imzo) (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Uch ko‘zli narsa to‘g‘risida

Maqsadlar:

a) ta’limiy maqsad-o‘quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to‘g‘ri, ongli, ifodali o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirish, lug‘at boyligini oshirish, o‘zbek va jahon ertaklari, she’rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og‘zaki nutqini o‘stirish.

b) tarbiyaviy maqsad- badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug‘larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o‘rgatish.

d) rivojlantiruvchi maqsad-o‘quvchilarning mavzuga oid bilim, ko‘nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she’r, maqol, tez aytishlar orqali o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

FK - fanga oid kompetensiyalar

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars usuli: suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o‘zi uchun.

Nazorat: o‘quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o‘quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e’lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. O‘tilgan mavzuni mustahkamlash. o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o‘tkazilib no‘to‘g‘ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko‘rsatma beriladi.

III. Yangi mavzu bayoni:

Jon Chiardi

Jon Chiardi - italiyalik shoir, tarjimon, yozuvchi va publitsist. Asli kasbi uchuvchi bolishiga qaramay, u san’at va adabiyotga juda qiziqqan, bolalar adabiyoti bolalar uchun asarlar yozgan. Lining ilk to‘plami “Amerikadagi uyga” deb nomlangan. “Limeriklar” to‘plamiga bolalarga atab yozgan eng sara asarlari kiritilgan bo‘lib, hanuzgacha kitobxonlar orasida katta qiziqish bilan o‘qiladi.



(1916 – 1986)



Bu narsaning
Uchta ko‘zi,
Bitta boshi bor.
Boshi - oqil,
Ko‘zlarning
Zo‘r qarashi bor.
Qarab tursang,
Ko‘z qisadi,
Qizil va sariq.
So‘ngra bizga,
Yashil ko‘z-la
Boqadi aniq.
Galma-galdan
Boqar bizga,
Biri: “Yur!” - deydi,

Ikkinchisi:
- Yana jinday
Kutib tur! - deydi.
Uchinchisi:
- To‘xta, - deya
Beradi buyruq.
- Yurishingga
Sening uchun
Hozircha yo‘l yo‘q.
Odam emas,
Tramvaymi
Yoki bo‘lsang ot.
Unday bo‘lsa,
O‘tavergin,
Mayli,
Rasmlarga izoh bering.

Marhamat.
Birinchi ko‘z
So‘ndi.
Ikkinchi ko‘z
So‘ndi.
Oxirida
Mana endi
Uchinchiy ko‘z
Yondi.
Yashil chiroq
Yonganida,
O‘chdi ulovlar.
Uch ko‘zlini
Svetofo
Deydi birovlar.



Ko‘plab ixtirolar beshigi bo‘lgan London shahri svetofoarning vatani hisoblanadi. 1868-yilda ingliz ixtirochisi Jon Pik Nayt Britaniya parlamenti yaqiniga ilk svetofozni o‘rnatdi. Londonda nur sochgan 1-svetofoz hozirgi avlodlaridan ancha farq qilgan. U 2 ta ko‘rsatkichdan iborat bo‘lgan va qo‘l bilan boshqarilgan. Elektr yordamida harakatlanuvchi dastlabki svetofozni AQSH fuqarosi Lester Beyir 1920-yilda ixtiro qilgan. 1914-yili Klivlend shtatida boshqa bir AQSH muhandisi Jeyms Xog tomonidan ishlab chiqarilgan, 4 ta elektr yordamida ishlovchi svetofoz o‘rnatilgan. Oradan 6 yil o‘tib, Jon Xarris va Uilyam Pottslarning loyihasi bilan Nyu-York va Detroyt shtatlarida 3 xil rangdagi svetofozlar ish boshlagan. Elektr bilan harakatlanuvchi svetofoz Yevropada ilk bor Parij shahrida ishga tushirilgan.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi. O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mavzuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

V. O‘quvchilarni rag‘batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: She‘rni yod oling.

O‘IBDO‘: _____ (imzo) _____ (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: Nazorat ishi-3

Maqsadlar:

a) ta'limiy maqsad-o'quchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish, to'g'ri, ongli, ifodali o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish, lug'at boyligini oshirish, o'zbek va jahon ertaklari, she'rlar, tez aytish-u topishmoqlar, maqollar, qiziqarli boshqotirmalar orqali og'zaki nutqini o'stirish.

b) tarbiyaviy maqsad- badiiy asarlar insonning qalbiga bolaligidan ezgulik urug'larini sochishi, yaxshilik va yomonlik, odob va odobsizlik, mehr-oqibat va yovuzlik haqida ilk tushunchalarni o'rgatish.

d) rivojlantiruvchi maqsad-o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma, malakalarini rivojlantirish. Ertak, hikoya, topishmoq, she'r, maqol, tez aytishlar orqali o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish va nutqini rivojlantirish.

FK - fanga oid kompetensiyalar

FK1 - adabiy-nutqiy kompetensiya

FK2 - badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars usuli: suhbat, tushuntirish, savol-javob, kichik guruhlarda ishlash.

Darsning vositalari: dars rejasi, mavzuga oid rasmlar, tarqatmalar, texnik vositalar.

Shakl: jamoa, guruhda ishlash, hamma o'zi uchun.

Nazorat: o'quvchilarning darsda faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.

Baholash: o'quvchilar bilimi reyting mezonlari asosida baholanib, dars oxirida e'lon qilinadi.

Darsning borishi:

№	Bo'limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O'tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O'quvchilarni rag'batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: salomlashish, yo'qlama qilish, o'quvchilarni darsga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash. o'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. Uy vazifasini bajarilishini tahlili o'tkazilib no'to'g'ri bajarilgan topshiriqlar yuzasidan ko'rsatma beriladi.

III. Yangi mavzu bayoni:

1. Matnni diqqat bilan o'qib chiqing va savollarga javob bering:

Matn: Bahor kunlaridan birida Dilshod bog'ga chiqdi. U daraxtlar ostida gullar ochilganini ko'rib quvonchga to'ldi. Qushlar o'zlarining chiroyli qo'shiqlarini yangrab kuyladilar. Dilshod gullarning hidini his qilib, qushlar bilan birga tabassum qildi. So'ng uyga qaytib, bu voqealarni oilasiga aytib berdi.

Savollar

1) Matnda nechta gap bor?

Javob: _____

2) Quyidagi gaplardan to'g'ri ketma-ketlikda joylashganlarini toping va harfini yozing:

A) Dilshod bog'ga chiqdi.

B) U gullarni ko'rdi.

C) Qushlar chiroyli qo'shiqlar kuyladi.

D) Dilshod voqeani oilasiga aytdi.

Javob: _____

3) Quyidagi so'zlardan ma'nosi bir-biriga yaqin bo'lganini belgilang:

a) bahor — _____

b) quvonch — _____

c) chiroyli — _____

Variantlar: xursand, go‘zal, qish

4) Matn asosida qisqacha yozing:

Matn kim haqida va u nima qildi? (2–3 satr)

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash: o‘tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o‘tkaziladi.

O‘tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O‘quvchilar topshiriqlarni bajarib, o‘tilgan mazuni qismlarga bo‘lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

V. O‘quvchilarni rag‘batlantirish. darsni yakunlash, darsda faol qatnashgan o‘quvchilar rag‘bat kartochkalari bilan rag‘batlantiriladi.

VI. Uyga vazifani e‘lon qilish: She‘rni yod oling.

O‘IBDO‘: _____
(imzo) (sana)